

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING MUHIM PSIXOLOGIK MASALALARI

Avliyoqulova Xafiza Murodullayevna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman MMTBga
qarashli 63-umumiy o'rta ta'lim maktabining psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb tushunchasining mohiyati, kasb tanlashning psixologik va pedagogik asoslari hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa maktab va psixologlarning bu boradagi o'rni yoritilgan. Kasbga yo'naltirish jarayoni o'quvchining shaxsiy salohiyati, qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash orqali to'g'ri yo'l tanlashiga ko'maklashuvchi muhim pedagogik faoliyat sifatida talqin etiladi. Shuningdek, kasb tanlashda tibbiy, psixologik va falsafiy yondashuvlar uyg'unligining ahamiyati ta'kidlangan. Mazkur maqola ota-onalar, o'qituvchilar, maktab psixologlari va kasb tanlashga oid ish yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Kasb tanlash, yo'naltirish, psixologik maslahat, maktab, pedagog, shaxsiy salohiyat, yetuk inson, falsafiy yondashuv, tibbiy-psixologik tayyorgarlik.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining shaxsiy kamoloti, hayotiy yo'lini belgilash va kasb tanlashida ko'mak beruvchi rahnamo sifatida ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot nafaqat bilish jarayoni, balki ijtimoiy-psixologik hamkorlik, kasbiy yo'naltirish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Maktabning asosiy vazifasi – o'quvchilarga fan asoslarini tizimli, ongli va mustahkam o'zlashtirishlariga ko'maklashish bilan birga, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbga yo'naltirish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatishdir. Bunda o'qituvchining o'quvchiga individual yondashuvi, uning qiziqishlari, moyilliklari va iqtidorini to'g'ri aniqlay olishi katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchining psixologik

xususiyatlari, jismoniy salohiyati va ma'naviy-axloqiy yetukligi ham kasb tanlash jarayonida hisobga olinishi lozim. Shu boisdan har bir o'qituvchi kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda nafaqat umumiy tushunchaga, balki **kasbiy maslahat berishga** oid ilmiy-nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Kasbiy maslahat – bu yoshlarning qobiliyatlari, qiziqishlari, intilishlari va salohiyatidan kelib chiqib, ularga kasb tanlashda ilmiy asoslangan tavsiyalar berish jarayonidir. Mazkur yo'nalish mutaxassisdan o'z kasbiy bilim doirasidan tashqariga chiqib, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, gigiena va mehnat bozoridagi ehtiyojlar haqidagi bilimlarni ham talab etadi. Shuningdek, o'quvchining kasbiy yo'nalishini aniqlashda maktab psixologlari va tibbiy xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati alohida ahamiyatga ega. O'quvchining jismoniy holati va ruhiy tayyorgarligi – u tanlagan kasbga qanchalik mos kelishini aniqlashda asosiy mezonlardandir. Shu sababli o'qituvchi kasbga yo'naltirish davomida o'quvchining sog'lig'i, psixologik holati, qiziqish doirasi, oilaviy sharoiti va ijtimoiy faolligini chuqur tahlil qilgan holda maslahatlar berishi lozim.



Kasbiy yo'naltirish muvaffaqiyati nafaqat o'quvchining shaxsiy salohiyatiga, balki o'qituvchining bu boradagi tayyorgarligi, ota-onaning ishtiroki va maktabda yaratilgan muhitga ham bevosita bog'liq. Zero, to'g'ri tanlangan kasb – baxtli kelajak garovidir. Psixik xususiyatlari yoshiga qarab rivojlanib borayotgan o'quvchi o'zidagi psixologik xususiyatlarni kuzatish orqali o'zgarib borishini bilib boradi. Boladagi

diqqat, sezgi, fahm-farosat, xarakter, tafakkur qilish, qobiliyat va boshqa psixologik xususiyatlar o'quvchining rivojlanib borishi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. Ayniqsa bu o'smirlik davrida juda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sib borayotgan bolada jismonan o'zgarishlar ham sodir bo'lib boradi. O'quvchining jismonan imkoniyatlari ko'payadi. O'zini va jismoniy kuchini boshqarish, tanasidagi o'zgarishlarni kuzatish orqali, o'zida kattalarga o'xshash tomonlar paydo bo'lishini ko'radi. Bular esa uni psixologik jihatidan kattalardek tutishga, o'zini ma'lum bir kasbda ko'rishga intiltiradi. Umuman olganda o'quvchidagi psixologik va jismoniy tomonlar asosan uning nerv fiziologik tomonlari bilan bog'liq bo'ladi. Insondagi yuz berayotgan psixologik va jismoniy o'zgarishlar uning miyasi bilan, psixofiziologik jarayonlar va nerv-fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bularni o'rgangan olimlar insonni kasbiga xos tomonlarini ham ko'rsatib berganlar. Insonni jismoniy va ruhiy sog'ligini o'rgangan olimlar qatoriga I.M.Sechenov, I.P.Pavlovni ko'rsatish mumkin.

Kasb tanlash masalasi psixologiya fanining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar keyinchalik K.M. Gurevich nomi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Gurevich o'z tadqiqotlarida insonning kasb tanlash jarayonida individual-psixologik xususiyatlari muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Uning fikricha, kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar asosan insonning psixofiziologik jarayonlariga borib taqaladi. Bu esa o'z navbatida I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi nazariyasi va B.M. Teplovning individual psixologik farqlarga oid ilmiy ishlanmalari asosida tushuntiriladi.

K.M. Gurevichga ko'ra, inson ulg'ayib borishi bilan uning xarakteri, odatlari, qiziqishlari va xatti-harakatlarida o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar shaxsning jismoniy va ruhiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. B.M. Teplov o'z navbatida shaxslar o'rtasidagi tafovutlarning sababini ularning psixofiziologik imkoniyatlarida deb biladi. Uning fikricha, har bir insonning ish faoliyatiga yondashuvi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, hissiyati, motivatsiyasi va mehnatga bo'lgan munosabati turlicha bo'ladi. Bu farqlar esa asosan I.P. Pavlov tomonidan ishlab chiqilgan nerv tizimi tiplari

va oliy nerv faoliyatining shartli bog‘lanishlari bilan izohlanadi. Kasb tanlashda insonning aqliy salohiyati, ijtimoiy tajribasi, emotsional holati, sog‘lig‘i, qobiliyati va qiziqishlari muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, individual yondashuvni qo‘llash, shuningdek, jismoniy va ruhiy salomatligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir inson mehnatga ijodiy yondashgan, o‘z kasbini sevgan, uni ijtimoiy jihatdan foydali deb bilgan holatda o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi. Shuningdek, kasbni erkin tanlash huquqi – shaxsiy rivojlanish va jamiyat farovonligining muhim mezonidir. Inson o‘z kasbini sevib bajaradigan bo‘lsa, u nafaqat mehnatdan qoniqadi, balki tashabbuskor, samarali va faol shaxs sifatida o‘z jamiyatiga katta foyda keltiradi. Shu boisdan ham kasb tanlash jarayoni ijtimoiy–psixologik jihatdan murakkab, ammo jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim bo‘lgan jarayondir.



Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma’lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma’lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob‘yektiv zaminga ega bo‘lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Kasbga yo‘naltirish – bu har bir individumning o‘ziga xos individual

xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo'naltirilgandir. Kasbga yo'naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy fiziologik va psixologikpedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Kasbga yo'naltirishning mazmuni va asosiy yo'nalishlari

Kasbga yo'naltirish – bu yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash, ularning kasbiy malakasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini shakllantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayon o'quvchilarning har tomonlama va barkamol rivojlanishining zaruriy sharti bo'lib, shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi.

Kasbga yo'naltirish tizimi o'z ichiga bir nechta tarkibiy qismlarni oladi:

Kasbiy axborot – bu o'quvchilarni turli mutaxassisliklar, ularni egallash sharoitlari, mehnat bozorining holati va ehtiyojlari, kasblarning istiqboli, malaka oshirish imkoniyatlari hamda kasblarga qo'yiladigan zamonaviy talablar bilan tanishtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu ma'lumotlar yoshlarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, shaxsiy istak va qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy maslahat – bu shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, sog'lig'i, moyilligi, kasbiy manfaatlari va mehnat bozori ehtiyojlari asosida unga kasb tanlashda

yoki faoliyat turini o'zgartirishda yo'l-yo'riq ko'rsatishga qaratilgan ilmiy asoslangan muloqot tizimidir. Bu jarayon psixolog-maslahatchilar va o'quvchilar o'rtasidagi professional hamkorlik asosida tashkil etiladi.

Kasbiy tanlov – bu shaxsning ma'lum bir kasbga qiziqishi, iqtidorini aniqlashga qaratilgan jarayon bo'lib, uning psixofiziologik xususiyatlari asosida amalga oshiriladi. Saralash esa – bu ma'lum bir kasbga qo'yiladigan me'yoriy talablar asosida shaxsning mos yoki nomosligini aniqlash tizimidir. Har ikki yo'nalish orqali o'quvchining kasbiy faoliyatga yaroqlilik darajasi baholanadi.

Kasbiy moslashish – bu shaxsni ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-psixologik va texnik-tashkiliy sharoitlarga moslashtirishga, kasbni muvaffaqiyatli egallashi uchun zarur bo'lgan muhitni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Bu jarayonda o'quvchi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi, mehnat muhitiga singib boradi.



Kasbga yo'naltirish jarayonining asosiy metodologik vositalaridan biri bu **professiografiya** bo'lib, u kasblar haqidagi axborotlarni yig'ish, tashxis qilish, korreksiyalash va shakllantirishni o'z ichiga oladi. Yana bir muhim vosita – **kasbiy**

tashxis, ya'ni o'quvchilarning psixologik, fiziologik, tibbiy va boshqa ko'rsatkichlarini baholash orqali kasb tanlashga tayyorlik darajasini aniqlashdir.

O'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- kasblarni chuqur tahlil qila olish,
- o'zining individual qobiliyatlari, sog'lig'i, psixik holati va qiziqishlarini to'g'ri baholay olish,
- kasbga qo'yiladigan talablarni o'z shaxsiy xususiyatlari bilan taqqoslay olish,
- real va istiqbolli kasbiy reja tuzish.

Kasbga yo'naltirish – bu nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat uchun, balki jamiyatda mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, inson resurslaridan oqilona foydalanish va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa

Kasbga yo'naltirish – yosh avlodning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi, ularni mehnat bozoridagi real ehtiyojlarga muvofiq holda yo'naltiruvchi muhim pedagogik va psixologik jarayondir. Bu jarayon nafaqat kasb tanlashda yordam beradi, balki shaxsning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va salohiyatini to'g'ri baholashiga, maqsadli rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Kasbiy axborot, maslahat, tanlov va moslashish bosqichlari orqali o'quvchilar nafaqat o'z kasbini ongli ravishda tanlaydilar, balki uni sevib, ishonch bilan egallab boradilar. Shuning uchun ham maktab, pedagog-psixologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar tomonidan o'quvchilarga ko'rsatiladigan kasbiy yo'naltirish yordami – yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishida poydevor vazifasini o'taydi.

Kasbni to'g'ri tanlash – bu shaxsiy baxt va ijtimoiy foydaning uyg'unligidir. Shu boisdan kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz tarzda olib borish – zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, O‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son Qarori.
3. Asqarova O‘.M., Usmanova S.U., Zamilova R.R., M.X.Tashibekova,D.A.Abdusamiyev Pedagogika nazariyasi va tarixi (1-qism) / Darslik /– Namangan: Usmon Nosir media, 2022. – 376 b
4. Asqarova O‘. va boshqalar. “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishmetodikasi” darslik Navro‘z, 2020 y. 456.
5. Asqarova O‘., Xayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.